



OYBEKNING “NAVOIY” ROMANIDAGI TAOM VA YEGULIK
NOMLARINING TURKCHA TARJIMALARDA AKS ETISHI

Kamola Rasulova

TDSHU, 3-kurs tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston,

Tel: +998 93 386 63 05, E-mail: Rasulovakamola0120@gmail.com

Annotatsiya

Turkiy xalqlarning oshxonasi boy va ko‘p qirrali gastronomik madaniyat bo‘lib, u mamlakat tarixi va geografiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mintaqaviy madaniyatlardagi farqliliklar, shuningdek Usmonlidan meros qolgan oshxona madaniyati uning rivojlanishida katta rol o‘ynagan. Oziq-ovqat mahsulotlari, ularning saqlanishi, xalqning taomlanish madaniyati, taom tortilayotganda idish-tovoqlar va boshqa unsurlar turkiy xalqlar moddiy madaniyatining ajralmas qismi sanalib kelgan.

Kalit so‘zlar: gastronomik madaniyat, Usmonli oshxonasi, taomlanish madaniyati

Taomlanish madaniyati o‘zbek xalqining og‘zaki va yozma adabiyotida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, taniqli o‘zbek adibi Oybekning milliylikka yo‘g‘rilgan “Navoiy” romanida xalqimizning taomlanish madaniyatiga oid yuzlab termin va xalqning taomlanish madaniyati iboralariga duch kelamiz. Asarda taom va milliy yeguliklar, ichimliklarning nomlari o‘zbekchadan turkchaga tarjimada qay tarzda aks etganligi kitobxonda qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Shu bilan bir qatorda romanda muallif qo‘llagan terminlarning salmoqli qismini fors va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil etishi ham sir emas. Turkchaga tarjima jarayonida bu xusus turk ijodkori Ahsan Botur e‘tiboridan chetda qolmagan (Chog‘ir – may, cha‘gir – sharap, ubra – ugra, kesgan osh, umoch – uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh, ob angur (fors) – uzumdam tayyorlangan sharob, uzum sharabi, nob – qizil may). Tarjimon taom, yegulik va ichimliklar nomini turkchaga o‘girishda bunday terminlarning kelib chiqishi, tarixi va hozirgi o‘zbek va turk tillarida qanday istifoda etilayotganiga alohida e‘tibor qaratganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

“Navoiy” romanida oziq-ovqat, taom nomlari bilan bog‘liq terminlar bilan bir qatorda o‘nlab maqol va iboralar ham ko‘p qo‘llanilgan.

Ma‘lumki, dunyo bo‘yicha uchta oshxona madaniyati alohida e‘tirof etiladi. Va bulardan biri mashhur turk oshxonasidir. Bizning nazarimizda, turk oshxonasi deyilganda, ham turk, ham o‘zbek, ozarboyjon, qozoq va boshqa turkiy xalqlarning mashhur taomlari tushunilmog‘i kerak. Jumladan, turkiy xalqlar milliy taomlarini tayyorlash jarayonlari boshqa xalqlarnikiga o‘xshamaydi va alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa turkiy xalqlar madaniyatining o‘ziga xosligidan dalolatdir.

Yuqoridagi fikrlarimizni isboti sifatida “Navoiy” romanidan bir misol keltirsak:





Aslyiat: *Mulozimlar dasturxon yozdilar. Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda mo'l-mo'l tortildi. Keyin chiroyli chinni kosalarda sho'rva, laganlarda et va yumshoq nonlar keltirildi.* [2, 40]

Ahsan Botur tarjiması: *Hizmetçiler sofralar yazıp, her tür tatlı, fıstık, badem ve kuru meyveleri leğençelerle taşımaya başladılar. Daha sonra nefis bezekli porselen kâselerde çorba, gül desenli tabaklarda et ve taze pide bu sofrayı süsledi.* [3. 33]

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Hizmetkârlar sofra yaydilar. Misafirlere her çeşit şirinlikler, fıstık, badem, kuru meyvelerden bol bol dağıtıldı. Sonra güzel çini ka selerde şorva", tepsilerde et ve yumuşak ekmekler getirildi.* [4. 56]

Bu misolimizda ikki tarjimon ham keltirilgan "har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar" kabi bir qancha yeguliklarning nomlarini so'zma-so'z va chiroyli ishlatgan. Ammo, "laganlarda et va yumshoq nonlar" birikmasi tarjimon Ahsan Botur tomonidan "tabaklarda et ve taze pide" deb berilgan. Tarjimon oddiygina yumshoq non birikmasini "taze pide" (yangi pide)ga o'zgartirgan. "Pide" aynan turklarga xos taom bo'lib, hatto ko'rinish jihatidan ham nonga nisbatan ishlatilmaydi. Aslida to'g'ridan to'g'ri "yumuşak ekmek" deb ishlatilsa ham bo'lar edi. Ikkinchi tarjimon Shuayip Qoraqosh esa so'zma-so'z tarjima qilib, "yumuşak ekmek" ya'ni "yumshoq non" xolida qoldirgan.

TDSHU dotsenti X. Hamidov "Yemek ve Beslenmeyle İlgili Türk ve Özbek Atasözleri ve Deyimlerinin Ortak Özellikleri" nomli maqolasida, oziq – ovqat va taomlanish bilan bog'liq turk va o'zbek maqol va iboralarining o'zaro xususiyatlari to'g'risida quyidagilarni keltiradi:

Üzüm üzüme baka baka kararır. – Qovun qovundan rang oladi (anlamı: kavun kavuna baka baka renklenir). – ma'nosi bir xil.

Bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı vardır. – Bir kun taom egan joyinga qirq kun salom ber. (anlamı: Bir gün yemek ediğın yere kırk gün selam ver). – ma'nosi bir xil.

O'zbek xalq maqollarida bir ishni oson ko'chishi ma'nosidagi "xamirdan qil sug'urganday" ("hamurdan kıl çeker gibi") iborasi Turk xalqida boshqa oziq ovqat nomi bilan ishlatiladi *tereyağından kıl çeker gibi* (ya'ni, sariyog'dan qil sug'urganday)dir.⁹⁷

O'zbek xalqiga xos bo'lgan maqollarni turklarda ham mavjud ekanligi, ammo o'zbeklarda keltirilgan oziq-ovqat o'rnini turkcha maqolda boshqa oziq-ovqat nomi bilan kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Aslyiat: *Besh-olti yoshda maktabidan ozod bo'lib yugurib kelarkan, u darrov bag'riga bosar, sut, patir-non va shirinliklar berardi.* [2. 41]

Ahsan Botur tarjiması: *Okuldan çıkıp yuvarlana yuvarlana eve döndüğünde sevgili anacığı onu bağına basar, süt, kurabiye, bazlama ve tatlılar getirirdi.* [3. 34]

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Beş altı yaşlarında mektepten serbest kalıp gelince derhal onu bağına basar, süt, patir ekmek ve tatlı şeyler verirdi.* [4. 57]

Yuqoridagi jumlada berilgan oziq-ovqat nomlarini turkcha tarjimalariga e'tibor bersak:

⁹⁷ H. Hamidov. "Yemek ve Beslenmeyle İlgili Türk ve Özbek Atasözleri ve Deyimlerinin Ortak Özellikleri". X. Uluslararası Altay Toplulukları Sempozyumu. – Toshkent, 2022.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Asarda muallif tomonidan keltirilgan “*sut, patir-non va shirinliklar*” soʻzlari birinchi tarjimonimiz Ahsan Botur tomonidan “*süt, kurabiye, bazlama ve tatlular*” deb oʻgirilgan. Tarjimon “patir-non” soʻzini “*kurabiye, bazlama*” deb tarjima qilgan. “Patir-non” oʻzbek xalqiga xos yegulikdir. “Kurabiye va bazlama” esa turk xalqiga xos yegulik boʻlib, oʻzbeklarning patir-noniga mos oʻxshatish emas. Xuddu shu jumlani Shuayip Qoraqosh “*süt, patir ekmek ve tatlı şeyler*” deb tarjima qilib, “Patir” soʻziga snoska orqali izoh qoldirgan. Aynan shu tarjima asliyatdagi maʼnoni toʻlaonli koʻrsatib beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Yani, tarjimon bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilar ekan, avvalo ikki xalqning madaniyati bilan tanish boʻlishi kerak. Ikki mamlakatda mavjud boʻlgan maqollarda bir xalqdagi yegulik nomi boshqa xalqda boshqa yegulik nomi bilan almashganligi, lekin maʼnosining oʻzgarmay qolishi juda qiziqarli xolatdir. Yana tarjimon koʻzdan qochirib boʻlmaydigan narsa bu xos soʻzlardir. Ayni bir xalqga xos boʻlgan soʻzlarni tarjimada oʻzini berib, izohini qiyida ilova qilinishi oʻsha xalqning madaniyatiga boʻlgan hurmat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] – H. Hamidov. “Yemek ve Beslenmeyle İlgili Türk ve Özbek Atasözleri ve Deyimlerinin Ortak Özellikleri”. X. Uluslararası Altay Toplulukları Sempozyumu. – Toshkent, 2022.
- [2] – Ойбек. Навоий. Таҳрир ҳайъати: Бобир АЛИМОВ ва б. – Т.: “Шарқ”, 2004.
- [3] – Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995. – 447 s.
- [4] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş, Ötüken Yayınevi. – İstanbul, 2019.

